

Ta'lim olish va uning inson xayotidagi o'rni

Umarxon Yaxyoxonovich Azamov
umarxonazamov2019@gmil.com
O'g'iloj Valijon-qizi Imomaliyeva
imomaliyevaugiloy@gmil.com
NamDPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim olishning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Ta'lim shaxsning aqliy, ma'naviy va kasbiy kamolotiga xizmat qilishi, uni jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishi tahlil qilingan. Shuningdek, ta'limning ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish hamda barqaror kelajakni ta'minlashdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, bilim, tarbiya oilaviy muxit pedagog faoliyati, ilmsizlik

Education and its role in human life

Umarxon Yaxyoxonovich Azamov
umarxonazamov2019@gmil.com
O'g'iloj Valijon-qizi Imomaliyeva
imomaliyevaugiloy@gmil.com
NamSPI

Abstract: This article examines the role and importance of education in human life. Education contributes to the intellectual, moral, and professional development of an individual and helps shape an active and responsible member of society. The article also highlights the role of education in social progress, economic development, and building a sustainable future.

Keywords: educational process, knowledge, upbringing, family environment, pedagogical activity, lack of education

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim olish inson hayotining eng muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'lim insonni aqliy, ma'naviy va kasbiy jihatdan rivojlantirib, uning jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi. Insonning dunyoqarashi, tafakkuri, hayotiy maqsadlari hamda ijtimoiy faolligi aynan ta'lim jarayoni orqali shakllanadi.

Jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika rivoji va globallashuv sharoitida bilimli, ongli va tarbiyali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ta'lim nafaqat shaxsiy kamolot vositasi, balki jamiyatning iqtisodiy, ma'naviy va madaniy yuksalishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida oilaviy muhit, pedagog faoliyati va tarbiya masalalari muhim o'rin tutadi. Ilmsizlik esa shaxs rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ta'lim olish va uning inson hayotidagi o'rnini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilarning ijtimoiy taraqqiyotini hozirgi talablarga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda o'qituvchi va o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim ko'nikma va malakalarni o'quvchi ongiga singdiradi, o'quvchi esa bu bilimlarni o'zlashtiradi. O'qish jarayonida inson psixikasi tegishli sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabi bilish jarayonlarida faol ishtirok etadi va muxim rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomlilik, qiziquvchanlik kabi xislatlar shakllanadi. O'quvchi o'zida shakllangan munosabatlarga asoslanib tevarak-atrofdagi narsalarni, voqealarni baxolaydi: oq-qorani ajratadi, ilmiy va g'ayriilmiy xodisalarning farqiga boradi. Bilimlar asosan qarash, g'oya, ta'rif, qoida, aniqlik aksima, teorema va boshqa shakllarda beriladi.

Ta'lim berishda Ibn Sino xar bir o'quvchi quydagi talablarga rioya qilishi zarurligini takidlaydi:

- Bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik.
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish.
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi.
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish.
- o'qitishning jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos keladi va bu chuqur mustaxkam bilim olishga yordam beradi.¹

Ta'limberishda pedagog ma'lum darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi lozim, chunki xar biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir o'quvchi o'ziga xos bilim faoliyati, iroda, xarakter, xulq - atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'lim-

¹ Рахимов С. Абу Райхон Беруний, Абу Али Ибн Сино Таълимва тарбия хақида Т., 1967 74-75-бетлар

tarbiya berish jarayonida mana shu xususiyatlarni xisobga olingandagina pedagog yosh avlodga ta'lim tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.²

Shu o'rinda savol tug'iladi: Aslida tariximizda ta'lim-tarbiya jarayoni qanday bo'lgan.

Sharqda, xususan O'zbekistonda ta'lim-tarbiya juda katta e'tibor berilgan. Bolalarni qichik yoshidan ilmga qiziqtirish. Axloqan pok vijdonli, mexr-shavqatli qilib voyaga yetkazish, el-yurtiga nafi tegadigan farzand qilib o'stirish maslalariga ota-bobolarimiz jiddiy e'tibor qilishgan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Markaziy Osiyo xududidagi madrasa va masjidlarda eski usuldagi maktablarda diniy ta'lim-tarbiya yetakchi o'rin egallagan. Bu bejis emas albatta. Inson ayniqsa, yosh bola yuksak axloq odob me'zonlarini bilmay va uni puxta egallamay turib, boshqa ilmlarni egallashi qiyin. Shu o'rinda eski o'quv yurtlarida til o'rganishga bo'lgan e'tiborni misol qilib ko'rsatish mumkin. Al-Xorazmiy, Al-Zamaxshariy, Al-Beruniy, Ibn-Sino, Ulug'bek, A.Navoiy, Ogaxiy kabi ulug' zotlar arab va boshqa tillarni qunt bilan o'rganishgan va o'sha tillarda erki ijod qilishgan. Musulmon maktablarida ta'lim– tarbiya 2 bosqichdan iborat bo'lgan. Daralar og'zaki bo'lgan, yozuv esa aloxida fan sifatida ajratilab, kotiblik kasbiga o'qiyotganlarga yozuv o'rgatilar edi. Maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qir, qizlar esa otin oyilar uyida o'qitilar, ular yozuvni emas faqat o'qishni o'rganar edilar. O'tmishda maktabga qabul qilingan o'quvchi yoshi aniq belgilanmas, ba'zi ota-onalar farzandlarini 5 yoshda ayrimlari esa 6-8 yoshda, shaxarlarda o'g'il bolalar 15-17 yoshgacha, qishloq joylarida esa 13-15 yoshgacha o'qitilardi. O'quv dasturlari va dars jadvali muntazam bo'lmasdan, o'quvchilar sinflarga ajratilmas edi. O'quvchilar o'qilayotgan fanning xarakteri va soxasiga qarab guruxlanar edi. Masalan: taxtaxonlar o'quvchi tomonidan taxtachaga yozilgan xarflarni o'rgangan.

VII-VIII-asrlarda Markaziy Osiyoni arablar fatx etgach, islom dini asosidagi sifat jixatidan yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya muassasalari vujudga keldi. Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rganish maqsadida Markaziy Osiyo maktablarida "Xaftiyak", "Chorkitob" kabi darsliklar keng tarqaldi. XII-asrdan boshlab islom dinini turkiy tillarda yozilgan asarlarda xam ommalashtirish boshlandi Masalan: A.Yassaviyning "Xikmat" asari; Maktab, madrasa, masjidlar faqat ibodatxona emas, tarbiya o'chog'i vazifasini bajargan. U davrda savod ibodatxona emas, tarbiya o'chog'i vazifasini bajargan. Maktab so'zi arabcha "yozuv o'rgatadigan fan" deb nomlanishi xam shundandir. Maktablarda bolalarga yozish va xisoblash o'rgatilgan, ya'na o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, xusnixat va arifmetikadan savod berilgan. Xar bir maktabda talabalar soni 30-40 tadan oshmagan, bundan tashqari masjid qoshidagi maktablarda xam 15-20 ta talaba o'qigan. Madrasa so'zi arabcha "dars o'qitadigan joy ma'nosini bildiradi. Mudarris dars beradigan

² Ривожланиш психологияси. Педагогик психалогия З.Т.Нишанов, Н.г.Камилова, Д.У.Абдуллаев, М.Х.Холназаров, Ўзбекистон файласуфи миллий жамияти нашриёти Тошкент-2018

o'qtuvchidir. Madrasalar 15-20, 30-40 va xatto 100-150 ta talabani o'qitgan, diniy bilim bilan birga dunyoviy bilimlar beradigan qobilyati, qiziqish bo'lmagan bolalarga shogirtlikka tushish, dexqonchilik bilan shug'ullanishni maslaxat bergan. 1917-yilgacha xar bir musulmon farzandini savodli qilishni savob deb bilgan.

O'lkaning ba'zi shaxarlarida jadid maktablari paydo bo'lib unda savdo sotiq ishlari uchun zarur bo'lgan ayrim fanlar (xisob, tibbiyot, geografiya) va boshqa fanlar o'qitilgan

Bundan ko'rinib turibdiki: Sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqi ilmga ma'rifatga chanqoq ekanligi, bolalarni yoshligidan ilm-fanga, kasb-xunarga o'rgatganligi fikrimizni yaqqol dalilidir. Xitoy tarixchisi Syuan Szyanning ma'lumotiga ko'ra o'sha zamonda O'rta Osiyo bola besh yoshga to'lgan, uni o'qish, yozishga va xisob kitobga o'rgatganlar. Eronda savodli kamdan-kam bo'lgani xolda O'rta Osiyoda xamda yoshlarni savodga o'rgatish odat bo'lgan. Taniqli Venesiyalik sayyox Marko Polo uzoq vaqt hozirgi O'zbekiston Tojikiston Turkmaniston va qo'shni viloyatlar xududida yashagan xalqlarning an'analari urf-odatlarini o'rganib, u o'z esdaliklarida yosh avlodni xayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'lanilgan usul va vositalarga tayangan xolda, "Nur Sharqdan taraladi", degan fikrni aytib o'tgan. Qadimgi Ovroqada keng tarqalgan mazkur xikmatda Sharq xalqlarining ilmga, kasb-xunarga yuqori darajada madaniyatga ega bo'lganligi insoniyat madaniyat poydevorini yaratishdagi ulkan xissasi g'arb xalqlari tomonidan tan olingani ifodasidir.³

Inson bilimi va aql-zakovati bilan barcha orzu-istaklariga erishadi, to'siq va qiyinchiliklarni yengib o'tadi. Buyuk alloma A.Jomiy ilmli bo'lish to'g'risida o'zining mashxur "Silsilatus zaxob" (oltin tizmalar) dostonida "Sevimli, aziz farzantga nasixat" bobida, eng avvalo xar bir yosh bilim olish zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni bexuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm xam bexuda ekanligini aloxida uqtirib o'tadi.

Ilm yo'liga qadam qo'y, chunki shu yo'l farovon,
Ammo umringning yo'li, g'oyat qisqa – bir on.
Har bir kishiga bo'lmas qayta yashash muyassar,
Egalla sen bilimni, mangu turar muqarar.
Bilim egalladingmi unga doim amal qil,
Ilming amalsiz bulsa, sen oni bir zaxar bil.
Faraz qildik bilarsan, ul ilmi kimyoni,
Zar qilmasang misingni, qolmas ishing nishoni.⁴

Ta'lim jarayonida olingan bilim insonning atrofida qilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishida muxim omil bo'lib xizmat qilishi xodislarda ham

³ Ўзбекистон халқ педагогикаси 1973-йил 40 бет.

⁴ А.Жомий танланган асарлар. Тошкент адабети ва санъати наширети, 1971 189-191- бетлар.

ko'rsatib o'tilgan. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir deb xalqimiz bejiz aytmagan.

Ilm ibotdan afzal va u taqvo dinning ustunidir. (268-xadis, 95-bet).

Lekin ilmni manfaatsiz sarflashdan saqlanishga da'vat etiladi. (173-xadis)

Haqiqiy komil inson bilimga boy, xushxulq, sog'lom bo'lishi, uni faqat foydali ishlarga, insonning farovon xayot kechirishiga sarf etish kerakligi ham uqtiriladi. (182-xadis)⁵

Ilmni avval o'rganib, so'ng boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir. Ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayon xisoblanadi. A.Avloniy dars va tarbiya orasida bir oz bo'lsa xam ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birini vujudi biriga bog'langan jon ila tan kabidir deb tariflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov S. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino Ta'limva tarbiya haqida T., 1967 74-75-betlar
2. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya Z.T.Nishanov, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayev, M.X.Xolnazarov, O'zbekiston faylasufi milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2018
3. O'zbekiston xalq pedagogikasi 1973-yil 40 bet.
4. A.Jomiy tanlangan asarlar. Toshkent adabyoti va san'ati nashriyoti, 1971 189-191- betlar.
5. Muxammad payg'ambar qissasi. Xadislari Toshkent, "Kamalak" 1991 yil 51-bet
6. Yakhoyokhonovich, A. U. (2025). Philosophical And Ethical Foundations For The Development Of Social Intelligence In Future Educators Prospective Teachers. Library of Current Research Journal of Pedagogics, 6(11), 31-35.
7. Yakhoyokhonovich, A. U. (2025). Methodology Of Effective Use Of Social Networks In The Development Of Social Intelligence Prospective Teachers. Nvpubhouse Library for European International Journal of Pedagogics, 5(11), 43-47.
8. Azamov, U. Ta'lim Jarayonida Ijtimoiy Intellectni Rivojlantirishning Milliy Qadriyatlarga Asoslangan Modeli. Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal, 674884.
9. Yaxyoxonovich, A. U. (2025, December). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARDA IJTIMOY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA TANQIDIY FIKRLASHNING ROLI. In Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 1129-1134).

⁵ Мухаммад пайғамбар қиссаси. Хадислар Тошкент, "Камалак" 1991 йил 51- бет

10. Roziqova, M. O. Q. (2026, March). GRAPHOLOGY AS A FIELD FOR STUDYING PERSONALITY PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS. In Claritas Conference Platform (No. 3, pp. 19-22).

11. Roziqova, M. O. Q. (2026). RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MILLATLARARO NIKOHLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI. Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi, (4), 52-54.